



**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarini
o'zida mujassam etgan hujjatdir**

www.tongyulduzi.uz

**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!**

N:45-46 (67002-03)

2014-yil
10-noyabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

AJOYIB SHOU



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyida «Zukko kitobxon» shou-tanlovini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.
(Davomi 2-betda)

DIQQAT! DIQQAT!

«Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishga shoshiling!



Nashr ko'rsatkichi - 198

Ushbu sonda:

USTOZLAR OILASI

2-bet



BOBONING SEVINCHI

3-bet



TO'GARAK A'ZOLARI «TONG YULDUZI» MEHMONI

4-bet



«NASAF»DAGI BUNYODKORLIK

7-bet

(Davomi. Boshi 1-betda)

AJOYIB SHOU

Kuni kecha mazkur bilim maskanida navbatdagi «Zukko kitobxon – 5» tanlovi bo'lib o'tdi. Litsey o'quvchilaridan tashkil



topgan «Mezon», «Fikrat», «Tafakkur» jamoalari «Zukko kitobxon» ijodiy albomi, asar tahlili, o'qilgan kitob yuzasidan savol-javob va notiqlik mahorati kabi to'rt shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Hakamlar hay'ati ularning har bir chiqishlarini belgilangan tartibda baholab bordilar.

Quvonarli jihati shundaki, yildan yilga qiziqarli tus olib borayotgan mazkur shou-tanlovga o'quvchilarning qiziqishi ortib bormoqda. Kitobni nafaqat o'qish, balki uqish, tahlil qilish, mazmun-mohiyatini teran his qilish, asosiysi esa, atrofda qilarni kitobxonlikka targ'ib qilish tanlov ishtirokchilarining asosiy maqsadiga aylangan.

Tanlovda «Mezon» guruhi yuqori natija ko'rsatib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bizning nazirimizda esa shouda ishtirok etgan har bir jamoa g'oliblikka munosibday edi. Chunki ularning harakatlari, intilishlari tufayli zalda o'tirgan yuzlab tomoshabinlarda kitobga mehr yanada ortgan bo'lsa, ne ajab. Tanlovdan ko'zlangan maqsad ham shu edi, aslida.

Yusuf ABDULLAYEV,
muallif olgan suratlar



USTOZLAR OILASI

Andijon viloyatining Izboskan tumanida bir oila borki, uni «Ustozlar oilasi», deyishadi. Abduxoliq aka va Hukumatxon aya Majidova uzoq yillar ta'lim sohasida faoliyat yuritib, hozirgi kunda nafaqada bo'lishlariga qaramay, hamon o'quvchilar davrasida. O'zlari faoliyat yuritgan muassasa pedagog jamoasining doimiy maslahatchilari.

Bu oilani biz yuqorida bejiz ustozlar oilasi demadik. Sababi, bugungi kunda oila farzandlari ham ota-onalari izidan ketishyapti. To'ng'ich farzand Mohidil Xushvaqtova onasi singari chet tili o'qituvchisi, yigirma sakkiz yildan beri Izboskan tumanidagi 15-umumta'lim

4-sinfda o'qiydi. Jajji nabira ham bobosi va buvisi kabi o'qituvchi bo'lmoqchi. U ingliz tilini mukammal o'rganishga kirishgan. Dildora tuman va viloyat gazetalarda o'z she'rlari bilan qatnashib turadi.

maktabda ingliz tilidan saboq berib keladi. Mohidil opa ning o'quvchilari doimo tuman, viloyat fan olimpiadalarida faxrl o'rinlarni olib kelmoqda. Ustozlarning suyangan tog'i Rahmiddin esa maktabda musiqadan dars beradi. U g'ijjak va rubobni maromiga yetkazib chaladi. Nafaqat tumanda, balki viloyatdagi tadbirlar ham uning ishtirokisiz o'tmaydi. Oila kenjasi Saidaxon ham ingliz tili o'qituvchisi. U ham opasi bilan bir maktabda ishlaydi.



Abduxoliq aka va Hukumatxon ayaning 9 nafar nabiralari ularning qalb quvonchi. Ulardan biri Dildoraxon Abduxoliqova hozirda

Abduxoliq aka farzandlari davrasida har safar muallimlik kasbining mas'uliyati haqida ko'p gapiradi. O'tilayotgan har bir darsga mehr berish lozimligini bot-bot uqitradi. Bu oiladagi ijodiy muhitni kuzatar ekanmiz, ular misolida o'qituvchilikning sharafiga va muvaffaqiyatlarini ko'ramiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

MUNOSIB E'TIROF

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabi direktori Nilufar HUSANBOYEVA «Yilning eng yaxshi maktab direktori» ko'rik-tanlovida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan ishtirok etgan 28 nafar maktab rahbarlari orasida g'oliblar safidan joy oldi.

Uzoq yillar maktabda kimyo fanidan dars bergan Nafisa opa Otajonovanning kenja farzandi bo'lgan Nilufar ona kasbini davom ettirishni ixtiyor ayladi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika institutining tabiiy geografiya fakultetini tamomlagan yosh mutaxassis kimyo, biologiya fanlari o'qituvchisi sifatida ish boshladi.

Mazkur maktabda rahbar bo'lib ishlayotganiga uch yil bo'ladi. Lekin qisqa fursat ichida maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha talay ishlar amalga oshirildi.

Ilm maskanida 1170 nafar o'quvchiga 60 nafar pedagog o'qituvchilar dars berishadi. Ular orasida «Shuhrat» medali sohibasi Mashrabxon Umarova, 10 nafar Xalq ta'limi a'lochilari, «Xalq ta'limi fidoyisi» unvoni sohiblari bor.

Maktabning sport zali zamonaviy jihozlar bilan to'liq ta'minlangan. Tumandagi 5-, 13-bolalar va o'smirlar sport maktablari bilan shartnoma tuzilib, badiiy gimnastika, qo'l to'pi, voleybol to'garaklari tashkil etilgan.

Shuningdek, fan to'garaklari, dizayn, to'qish, yosh musavvirlar, drama, raqs kabi to'garaklar

qatorida «Orasta qizlar» to'garagi rahbari Gulmira Sodiqova 59-oilaviy poliklinika shifokorlari bilan hamkorlikda ish olib bormoqda.

Maktabda tez-tez turli tadbirlar, ochiq darslar, ilmiy anjumanlar o'tkazilib turiladi. Yaqinda «Chet tillarni o'qitishni jadallashtirishning innovatsion yo'nalishlari» mavzusida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika ilmiy tadqiqot instituti hamkorligida respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Ko'p yillik ish tajribasiga ega o'qituvchilar tomonidan ochiq darslar o'tkazildi. Konferensiya ishtirokchilari sho'balarga bo'lingan holda ish olib borishdi.

O'tgan o'quv yilidan beri maktabda «Kamolot» YOIH yetakchisi Sayyora Tojiboyeva rahbarligida «Parvoz» nomli jurnal nashr etilmoqda. Unda maktabning bir oylik faoliyati, o'quvchilar ijodidan namunalar yoritib boriladi.

Maktabda yaxshi bir an'ana ham yo'lga qo'yilgan. Ya'ni, «Saxovatli bolalar» klubi tashkil etilgan bo'lib,



bayram kunlari mehnat faxriylari va qariyalari holidan xabar olib turiladi. Shuningdek, bu yerda «Zulfiyaxonim qizlari» klubi faoliyat yuritib kelmoqda. Har yili ushbu tanlovning maktab bosqichiga 20 nafardan ortiq iqtidorli qizlar jalb etiladi.

Namunali maktab rahbarining qilinajak ishlar rejaları katta: maktabni kelgusida ixtisoslashtirilgan bilim maskani darajasiga ko'tarish, o'quvchilarni yuksak intellektual salohiyatli insonlar etib tarbiyalashdan iborat.

Bu sharafl va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda Nilufar opa rahbarligidagi maktabning pedagogik jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Dilorom HOTAMOVA

IMKONIYATLARDAN FOYDALANIB

Bugun biz yoshlar yaratilgan barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz muhim.

Men darslardan so'ng tikish, to'qish to'garaklariga qatnayman, ayni damda ingliz tilini puxta o'rganmoqdaman. Maktabimizda tashkil etilgan «Orasta qizlar» to'garagi a'zosiman. To'garakdagi qizlar bilan turli tadbirlar uyushtirishda, musobaqalar, bellashuvlar o'tkazishda bosh-qoshman. Chunki maktabimizning yuzi «Orasta qizlar»ning yutuqlarida namoyon bo'ladi-da.

Men ham kelajakda ko'plab yutuq va g'alabalarga erishayotgan yoshlar qatoridan o'rin olishga harakat qilaman.

Saodat ERGASHEVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 152-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Men ilk marta gazetaga maktub yo'llayapman.

TAHRIRIYATGA ILK MAKTUB

Sevimli nashrim «Tong yulduzi»ning har bir sonini kuzatib boraman. Menga, ayniqsa, gazetadagi boshqotirmalarni yechish juda yoqadi, undagi har bir maqolani maroq bilan o'qiyman.

Gazetada e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar ko'riktanlovida 1-o'rinni maktabimiz o'quvchisi Mohinur Abduattorova qo'lga kiritgani bizni juda quvontirdi. Kelgusida undan bundan-da yuksak natijalarni qo'lga kiritishini kutib qolamiz. Biz ham Mohinurdek tirishqoq va intiluvchan o'quvchi bo'lishga so'z beramiz.

Gulchiroy SAHOBIDDINOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

AGAR HAYOT BO'STON BO'LSA...

Maktabimizning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar muovini Dilnoza opa Mamatova: «Sizlarning omadingiz bor, bilimdon, fidoyi muallimlardan ta'lim olyapsizlar», deydi.

Haqiqatan ham barcha ustozlarimiz mehribon, shu bilan birga, talabchan. Ular bizni ko'proq o'qishimiz, kitob bilan do'stlashishimiz kerakligini ta'kidlaydilar.

Maktabda bizni tushunadigan Maqsuda opa Yangiboyeva, Zulfiya opa Samadova, Zubayda opa Fatxullayeva kabi fan o'qituvchilari, boshlang'ich sinf o'qituvchimiz Nafisa Qo'shmurodova kabi ustozlar bor ekan, biz o'quvchilar ham doim izlanishdamiz, darslarni behuda qoldirmaymiz.

Biz ularni yaxshi ko'ramiz va o'g'itlariga bir umr amal qilamiz!

Malika BO'RIBOYEVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 226-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



Aziz o'quvchilar! 2015-yil uchun «Tong yulduzi»ga OBUNA bo'ldingizmi?

8-«V» SINFGA 20 TA «TONG YULDUZI»

– deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 97-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi Alijon SOLIYEV.

«Tong yulduzi» gazetasini mutolaa qilib katta bo'lganman. O'quvchilik davrimda bizga sirdosh bo'lgan. Usiz kundalik hayotni tasavvur qilolmasdik.



Men tarix fani o'qituvchisi va sinf rahbari bo'lsam-da, hamon bu gazetani shogirdlarim – o'quvchilar bilan muntazam o'qib boraman. Undagi maktablar va o'quvchilar faoliyatiga oid dolzarb mavzudagi maqolalarni, rang-barang xabarlarini, yangiliklarni, ulug' allomalarni to'g'risidagi qiziqarli lavhalarni zo'r ishtiyok bilan o'qiyman.

U o'quvchilarning tafakkurini boyitmoqda, dunyoqarashini kengaytirmoqda, bilimiga bilim qo'shmoqda. Gazeta bilan yaqin muloqotda bo'lgan o'quvchi kelajakda, albatta, yetuk inson bo'lib yetishishiga ishonchim komil.

Sinfim o'quvchilari boshlagan eng muhim tadbir – elektr energiyasini tejash borasidagi harakatlari butun respublika bo'ylab keng yoyildi. Hozirgi kunda nafaqat poytaxt maktablarida, balki barcha viloyatlardagi umumta'lim muassasalarida bu harakatni qo'llab-quvvatlashmoqda.

«Sog'lom bola yili»da 8-«V» sinfim o'quvchilaridan 13 tasi «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishgandi. 2015-yil uchun esa 20 nafar o'g'il-qiz sevimli gazetasiga obuna bo'ldi. Biz gazeta orqali barcha o'quvchilarga bitta istakni tilab qolamiz: «Tong yulduzi»ni o'qing va unga obuna bo'lishga shoshiling.

Mardon bobo so'rida shirin xayol surib o'tirib, navbatdagi nafaqa pulini olib kelgan pochta xodimi.

BOBONING SEVINCHI

– Assalomu alaykum, ota, – dedi tabiatan quvnoq pochta xodimi. – Ishlaringiz, nevaralaringiz hammasi yaxshimi?

– Yaxshi, yaxshi, – dedi bobo salomga alik olib. So'ng doim imzo chekadigan daftarni qoralagach, pulni oldi.

– Ota, gazeta-jurnallarda obuna davom etmoqda. Bu «Tong yulduzi» degan gazeta. Butun O'zbekistonda o'qiydi buni. Mana, Baxmal tumanimizda ham obuna boshlangan. Nevaralaringiz sevib o'qiydi. Obuna bo'lib qo'ysangiz, keyin minnatdor bo'lasiz. O'zim ham har yili shu gazetaga yozilaman.

Bugun boboning 5-sinfda o'qiydigan nevarasi kurash bo'yicha maktabda birinchi o'rinni oldi. Kela solib buvasini quchgan qo'lchalarga ancha kuch enibdi. Sal oldin 7-sinfdagi nevarasi shaxmatdan tumanda birinchilikni qo'lga kiritgan edi. Shu nevarasi qiziq. Har kuni shaxmat o'ynaylik, deb qistagani-qistagan. Kichik nevarasi o'zbek tili va adabiyotidan o'tkazilgan fan olimpiadasida faxriy yorliq oldi.

Shulardan sevinib yurgan kezlari yana nafaqa kelib qoldi. Oldi-yu nevaralariga tarqatib yubordi. O'g'illari otasining bu ishidan norozi bo'lishganda shunday dedi:

– Sizlarga rahmat, shunday nevaralarni tarbiyalab katta qildinglar. Kundan kunga ulg'ayib, iqtidorlari yuzaga chiqmoqda. Ularning quvonchi mening sevimchim. Topganim ularniki. Nevaralarimning quvonchi uchun bu pullar hech nima emas. Yoshariq qolishni, katta-katta yutuqlarga erishishni, ulgurulmagan ishlarimni qilishni juda-juda istayman. Shu armonlarim bolalarimda ushalsin-u, ular mening yoshligim bo'lsin...

...Mardon bobo gazetaga obuna bo'lganidan keyin qiziqib o'zi ham o'qir, turli yutuqlarni qo'lga kiritayotgan iqtidorli yoshlarni ko'rib, havasi kelardi. Shundan bo'lsa kerak, nevaralarini dars qilishga, muvaffaqiyat sari dadil odimlashga, irodali bo'lishga undardi. Mana, harakatlari behuda ketmadi. Nevaralarining 3 yutug'i ko'zlarini quvnatib turibdi. Jizzax viloyatining kaftdek qishlog'igacha kirib kelayotgan, juda o'qishli bu gazeta boboning-u nabiralarning ko'nglidan allaqachon joy olib ulgurgan.

Bugun «Tong yulduzi»ning yangi soni Mardon boboning xonadoniga kirib keldi. Gazetani varaqlar ekan, boboning quvonchiga quvonch qo'shildi. Chunki unda nabiralarning yutuqlari haqida yozilgan edi-da.



Ahad JUMANQULOV

Tahririyatimizda deyarli har kuni shoirlar, ustoz-yozuvchilar, havaskor qalamkashlar mehmon bo'lishadi.

TO'GARAK A'ZOLARI «TONG YULDUZI» MEHMONI

Yaqinda gazetamizga yana mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular – poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 250-umumta'lim maktabining «Yosh adiblar va jurnalistlar» to'garagi a'zolari bo'lib,

yana kimdir gazetamiz rassomi Feruz Matyoqubovga chizgan suratlarini taqdim etdi. Jamoamizning tajribali jurnalisti, yozuvchi Yusuf Abdullayev, Dilorom Hotamova hamda ingliz tili mutaxassisi Dinara Shakirovalarni savolga tutgan bolajonlarni aytmaymizmi? Eng muhimi, jajji mehmonlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob olishdi. Haftaning dushanba kuni uyiga, maktabiga kirib boradigan «Tong yulduzi» gazetasining tayyorlanish jarayoni, qay tariqa sahifalanishi bilan tanishishdi. Hatto sahifalovchi dizaynerning ham ishiga havas qiluvchilar topildi.

Eng qizig'i, nigohlarida hayrat va hayajon bilan xayrlashgan jajji mehmonlarning kayfiyati jamoamizga ham yuqdi. Shu kuni barcha xodimlar yanada quvnoq edi.

Jamshid KAMOL



ular ijodiy jamoamiz bilan tezda tanishib olishdi. Kimdir taniqli shoir, tahririyatimiz xodimi Axtamquliga yozgan she'rlarini ko'rsatgan bo'lsa,

AJDODLARGA EHTIROM

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida bo'ldik.

«Ona tili va adabiyot fani oyligi» doirasida o'qituvchimiz Marhabo opa Mirzayeva tomonidan tashkil etilgan mazkur tashrif barchamizga juda yoqdi. Muzeydagi boy eksponatlar yordamida maktabda olgan bilimlarimizni yanada mustahkamladik.

Rosti, noyob yodgorliklar joy olgan ushbu dargohga kirganimiz zahoti o'zimizni go'yo o'tmish olamiga tushib qolgandek his etdik. Bizga, ayniqsa, mumtoz adabiyotimizga bag'ishlab jihozlangan bo'lim juda yoqdi. Bu yerda Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz bilan g'oyibona suhbat qurdik. Qisqa fursatda o'sha davrlarda yashadik, desak,

mubolag'a bo'lmaydi. Devorlardagi asarlarga ishlangan miniatyuralar, atoqli shoirlarimizning qo'lyozmalari o'sha davr ruhidan darak berib turibdi.

Muzey bilan tanishuv davomida adabiyotshunos olim Naim Karimov bilan kechgan suhbatimiz ham g'oyatda maroqli bo'ldi.

Begoyim JABBOROVA, Malika EGAMBERDIYEVA, 250-umumta'lim maktabi 6-sinf o'quvchilari, «Yosh adiblar va jurnalistlar» to'garagi a'zolari

TAASSUROTULARIM BIR OLAM

«Tong yulduzi» gazetasining ijodiy jamoasi bilan tanishuv, maqolalarni tahrir qilish, gazetaning sahifalanishi kabi jarayonlar biz uchun unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi.

Tahririyat ijodiy xodimlari bizga jurnalistika kasbining sir-asrorlari haqida so'zlab berdilar. Har dushanba kuni biz bir nafasda, maroq bilan mutolaa qiladigan gazetamizning hafta davomida o'ziga xos katta mas'uliyat bilan tayyorlanishiga guvoh bo'ldik.

Albatta, bunday ijodiy safarlarimizni yana davom ettirib, to'garagimiz rahbari, fidoyi va jonkuyar ustozimiz, jurnalist Anvar aka Tojiyev bilan poytaxtimizdagi barcha muzeylarga, jumladan, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va Zulfiya kabi atoqli shoirlarning uy-muzeylariga borish hamda madaniy yodgorliklarni ziyorat qilishni rejalashtirganmiz.

Farangiz MURODULLAYEVA, Vasila YUNUSOVA, Gulrux SHOKIROVA, «Yosh adiblar va jurnalistlar» to'garagi a'zolari



J. MATYOQUBOV olgan suratlar

ADABIYOT YASHASA, MILLAT YASHAYDI

Maktabimizda «Adabiyot asrlarni asrlarga, millatlarni millatlarga bog'laydi» shiori ostida 5–9-sinflar o'rtasida devoriy gazetalar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Hakamlar hay'ati devoriy gazetalarining bezatilishiga, mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor berishdi. Unga ko'ra, 8-«A» sinf o'quvchilari 1-, 7-«A» sinf o'quvchilari 2-, 9-«A» sinf o'quvchilari 3-o'ringa munosib topildi. G'oliblar maktabimiz rahbari Mohidil Fozilova tomonidan faxriy yoriq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Shohsanam SAYDULLAYEVA, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

ONA TILIM, QADRLISAN!

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 322-umumta'lim maktabida «Ona tilim, qadrlisan, suyuksan...», deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Tadbirda Sergeli XTMFMT va TE bo'limi uslubchisi Sanoat Ismatullayeva tuman maktablarida ona tili – o'zbek tili fanining o'qitilishi va ahamiyati haqida so'zlashdi. Taniqli shoir

Zulfiya Mo'minova esa o'zbek tili va uning xususiyatlarini haqida aytib, o'quvchilarni o'zining ijod namunalari bilan xushnud etdi.

Shuningdek, mehmonlardan tumandagi 264-umumta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi Nargiza Qurbonova ta'lim boshqa tillarda olib borilayotgan muassasalarda o'zbek tili darsliklarining sifatiga yanada e'tibor berish lozimligi haqida gapirarkan, bu o'rinda o'qituvchilarning darslikni o'quvchiga yetkazishdagi roli haqida o'xtaldi.

Bayramda tuman maktablari o'quvchilarining o'zlarini yasagan turli ko'rgazmali buyumlari, plakatlarni namoyish etildi va ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Alisher FAYZULLAYEV

HAVAS QILSA ARZIYDI

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabiga tashrif buyurganimizda, u yerdagi shart-sharoitni ko'rib, havasimiz keldi.

Shinam sport maydonchasida shug'ullanayotgan yosh sportsevarlar, ingliz tili darsida o'z bilimlarini mustahkamlayotgan o'quvchilar, ayniqsa, kitobxon bolalar ko'p ekani e'tiborimizni tortdi.

– Maktabimizda 2 ming 300 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ular orasida talay yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan iqtidorli va iste'dodli bolalar juda ko'p, – deydi maktab direktori Saodat opa Malikova. – Shunday o'quvchilardan Diyora Rashidova kimyo fanidan shahar bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasida 2-o'rinni egalladi. Dmitriy Smirnov matematika, Mirabbos A'zamov bo'lsa fransuz tili fanidan sovrindor bo'lishdi.

Tumandagi «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovida ham o'quvchi qizlarimiz faol. Ana shunday o'quvchilarimizdan biri Saltanat Nizomiddinova Respublika xotin-qizlar qo'mitasi tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Albatta, bunday yutuqlarda fidoyi ustozlarning ham xizmati beqiyos.

Manzura UBAYDULLAYEVA

SAYOHAT SABAB...

Birinchi chorak yakunlanib, o'quvchilar bir hafta mobaynida miriqib hordiq chiqarishdi.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabining 5-«A» va 5-«B» sinf o'quvchilari ta'til kunlarida ustoz Dilrabo Abdurasulova boshchiligidagi tarix muzeyiga sayohat qildilar. Tarix to'garagi a'zolari sayohat davomida olam-olam zavq oldilar. Tarixdan saboq olib, bugungi kunlarimiz uchun shukronalar aytidilar.

Ushbu sayohat o'quvchilarning yanada ko'proq bilim olishlariga, navbatdagi choraklarni yaxshi o'zlashtirishlariga sabab bo'lsa, ajabmas.

O'z muxbirimiz

Lesson 10

«It» olmoshi

«It» olmoshi vaqtini ko'rsatganda, hafta kuni, masofa yoki ob-havo haqida gapirilganda ishlatiladi, lekin tarjima qilinmaydi.

Time



What time is it?
It's half past ten.
It's late.

Day




What day is it?
It's 10th of November.
It's Monday today.

Distance



How far is it from Tashkent to Samarkand?
It's a long way from here to the airport.

Weather



It's raining. Is it snowing?
It's warm. It's windy.
It's cloudy. It's foggy.

Today's child (Bugunning bolasi)

In Fergana region people educational administration of 4th state specialized boarding school's pupil on form 9-«V» Asatullo AKRAMOV took part in «Bilimlar bellashuvi» from Geography and took the 1st place in city stage and 3rd place in the region.

– Except geography I learn English in my free time and I always read this newspaper with great interest, such as «Let's learn English», poems, short stories and the other articles, – said Asatullo.



ZUBAYDA olgan surat

Check your knowledge (Bilimingizni sinab ko'ring)

Match a verb in A with a line in B



- A
1. Wear
 2. Tell
 3. Drive
 4. Take
 5. Do
 6. Make
 7. Cash
 8. Post
 9. Ride
 10. Pack
 11. Pay
 12. Order
 13. Watch
 14. Take

- B
- a) the washing-up
 - b) a story
 - c) a photograph
 - d) check
 - e) a van
 - f) a suit
 - g) a phone call
 - h) a suit-case
 - i) a taxi
 - j) a meal
 - k) a letter
 - l) a film on TV
 - m) a horse
 - n) a bill



Risolat ISMOILOVA

It is interesting! (Bu, qiziq!)

Too and either

Too va either o'zbek tiliga «ham» deb tarjima qilinadi, lekin too bo'lishli gaplarda, either esa faqatgina inkor gaplarda ishlatiladi.

For example: I'm happy. I'm happy too.
Aziza is a doctor. Her brother is a doctor too.
I can't cook. I can't either.
I don't want to watch this film.
I don't either.



7 words for 7 days (7 kunga 7 so'z)

Translate and learn by heart these synonyms.

huge

large

BIG

gigantic

giant


enormous



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Peace and tranquility are valuable blessings

(Tinchlik va xotirjamlik eng qimmatli boylik)



Once upon a time when you and I weren't born, there was one boy. And one day his grandfather called him and gave some advice about life:

– My dear imagine, as if there are two wolves living inside each of us. They always fight with each other. While one is greedy, angry, jealous and a liar, second is truthful, kind good – natured and openhanded.

Boy was impressed by these words and asked:

– Grandpa, which of them will be the winner at the end?

– Everything is in your hands, the winner will be that, which you care for and feed more, – said his grandfather.

Dear sons and daughters, the morality of this story is that, in life, you should be truthful, kind, openhanded in order to be calm and in harmony with yourself. Do not forget that peace and tranquility are valuable blessings.

Shirin ASILOVA,

TIU qoshidagi akademik litseyi o'quvchisi

How is small round loaf's mood? (Bo'g'irsoqning kayfiyati qanday?)

Bo'g'irsoqning holatiga qarab kayfiyatini aniqlang.



a) I've lost my money.



b) Wow. How beautiful it is.



c) May be I'll help you with it.



d) Please let me go.



e) You will never go out, you don't do your homework again.



f) I will wait till you finish.



g) I'll not lend you my bicycle.

He said sadly.

He said strictly.

He said patiently.

He said shyly.

d) He said kindly.

He said stubbornly.

He said excitedly.

Iroda MIRZAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

UMID GULIN TERAYLIK

Umud gulin teraylik, do'stlar,
Zero, umud iymondir asli.
Ayovsiz qish ayozin yengib,
Ko'ngil bo'lar gulbahar fasli.

Umud gulin teraylik, do'stlar,
G'am-anduhni chetga suraylik.
Har ko'ngilda bir gavhar derlar,
Undan tole qasrin quraylik.

Umud gulin teraylik, do'stlar...



QUVONCHNING SURATIN CHIZAMAN

Yig'loqi kimsalar yoqmas ko'nglimga,
Bas, yetar, dilingda hijronni so'ndir.
Dunyo asli derlar bordir bir kami,
Ushbu falsafaga o'zingni ko'ndir.

Hayotning yuzini ko'rgani uchun,
Shodlanar lahzalik umri bo'lsa ham.
Bir savol qiynaydi qalbimni har kun,
Kapalak zavqini ololsa odam?

Armonsiz dunyoda men el qatori,
Shodlikni opichlab kezaman.
Yig'lashni sira xush ko'rmayin,
Quvonchning suratini chizaman.

Aziza XO'JAKELDIYEVA,
Jizzax viloyati, Mirzacho'l
tumanidagi Agroiqtisodiyot kasb-
hunar kolleji o'quvchisi

DIYONAT

Duo qilarlar oyim:
– Diyonatli bo'l doim.
To'g'ri, halol yashagin,
Baxting kulsin iloyim.



Diyonat bu insonning
Dilidagi javohir.
Bunday kishi, ishonning,
Ezgu ishlarga qodir.

Tutmasin qo'limizni
G'azab, hasad, xiyonat.
Yoritsin yo'limizni
Quyosh bo'lib diyonat!

Barnoxon RAJABOVA,
Yakkasaroy tumanidagi 26-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi,
«Kamalak yulduzlari–2013» tanlovi g'olibi

SATRLAR SEHRI

Aziz o'quvchilar! She'riyat ixlosmandlari qalbidan
o'zining quvnoq satrlari bilan joy olish baxtiga
muyassar bo'lgan sevimli bolalar shoirasi Umida
ABDUAZIMOVAni ko'pchiligingiz juda yaxshi tanisiz.

Ijod olamiga kirib kelayotgan o'quvchi-
yoshlarning aksariyati:

– Men Umida opaning shogirdiman, –
deya faxrlanishadi.

Yuzidan bir zayl tabassum
arimaydigan Umida opa yoshlarga o'z
maslahatlarini berishdan tolmaydi.

Darvoqe, uzoq yillar «Tong yulduzi»
gazetasida faoliyat ko'rsatgan Umida
Abduazimovaning xizmatlari qadrlanib,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi unvoni, «Shuhrat» medali bilan
taqdirlandi.

Umida
Abduazimova

Shoiraning ko'ngilochar satrlaridan bugun sizlarga ham ilindik.

AXTAMQULI

O'ZBEKISTONIM

Tuprog'ing yaqindir bunchalar dilga,
Mehrimni sochaman har bitta gulga.
Nomingni har lahza olaman tilga,
Ey, ota makonim O'zbekistonim!

Yoshlaring barkamol, shijoatlidir,
Shu yurtning suyukli, dilbandlaridir.
Iqboli porlagan payvandlaridir,
Ey, aziz makonim O'zbekistonim!

Sevgi, muhabbatim senga jo bo'lsin,
Ona yurt mehr va iqbolim ko'rsin.
Bog'laring gullarga, nurlarga to'lsin,
Ey, aziz makonim O'zbekistonim!

Yusuf ELAMONOV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
Qoramurcha Aytosanoat kollejining
2-bosqich o'quvchisi

BIR UMR O'Z YURTIMG'A XIZMAT QILIB O'TAMAN

Yurt va ona so'zining
Lug'aviy ma'nosi teng.
Sevib asl farzandin
Ardoqlashga bag'ri keng.
Orzum, chiqmay so'zidan,
Onam poyin o'paman,
Bir umr o'z yurtimg'a
Xizmat qilib o'taman.

Daraxt tik o'saverdi,
Qayrilmadi yellarga.
O'saverdi chalg'imay
Yoqimli shivirlarga.
Keyin-chi, qilib jabr,
Kesib po'stin shildilar.
To'g'ri ekan baribir –
Uyga ustun qildilar.

U bilmaydi hali so'zlashni,
Odamlarni olmagan tanib.
Qorni ochsa bilar yig'lashni,
Qorni to'ysa qo'yar jilmayib.
Oq yo'rgaklab oq tilak bilan,
Qarashadi erinmay unga.
Yetishsinlar bir kuni u ham
Yaxshilikni qaytarar kunga.



SARISHTA QIZ

Muxlisa hali juda yosh. Endi
1-sinfga boryapti. U juda erkatoy.

Onasi uni uy ishlariga
o'rgatmoqchi bo'lsa:

– Yo'q, men hali kichkinaman.
Katta bo'lsam, uy ishlariga

qarashaman, – deb dikir-dikir
sakrab qo'shni qiz bilan o'ynagan
oshiqadi.

Kechqurun ham apil-tapil darsini
qiladi-yu, onasiga: «Endi menga
ertak aytib bering», deb turib oladi.

Bir kuni onasi
unga bolalar
gazetasidan hikoya,
she'r, topishmoq va
maqollar o'qib berdi.
Muxlisaga, ayniqsa,
«O'n barmog'ingda o'n
hunar bo'lsin» maqoli juda
yoqdi.

Ammo qizaloq
«Yerning yuzini ochsang,
sening yuzing ham
oppoq, go'zal bo'ladi»,
maqolini tushunmadi.
Shu bois, «Bu nima
degani, tushuntirib
bering, ayajon?», deb
so'radi.

Onasi esa «Yerni
tozalab supursang,

sarishtali, chiroyli qiz bo'lasan», deb
javob berdi.

– Ha tushundim, tushundim, –
quvonib ketdi Muxlisa.

Ertasi kuni hali tong
yorishmasidan, qushlar endi
uyg'onayotgan payt eshik ohista
ochildi. Sal fursat o'tmay hovli
dan «shitir-shitir» ovoz eshitildi.

Onasi o'rnidan turib tashqariga
chiqib qarasa, Muxlisa hovlini
mehr bilan supuryapti... Qiziga
o'qib berganlari besamar ketmayotgan
dan ich-ichidan quvondi.

Muxlisa hozir 3-sinfda o'qiydi.
Har kuni maktabdan kelgach
onasiga salom berib, uy ishlarida
yordamlashadi. Chunki Muxlisa
endi sarishta qiz.

Sayyora MIRZAYOROVA,
Surxondaryo viloyati,
Qumqo'rg'on tumanidagi
49-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qalin o'rmonda
maqtanchoq quyon yashagan ekan. U bir kuni
tipratikanni uchratib qolibdi va unga maqtanibdi:
– Hoy tipratikan, men sendan zo'rman, chunki
kattaman, senga o'xshagan mittivoylarning birortasidan
qo'rqmayman.



MAQTANCHOQ QUYON

(Ertak)

Shunda tipratikan:
– Sening kattaliging dovyurakligingni bildirmaydi,
maqtanishni bas qil, – debdi.

Shu payt ularning oldidan bir ovchi chiqib qolibdi.
Quyvon qo'rqanidan juftakni rostlabdi. Ovchi tipratikanni
ushlab olmoqchi bo'lganida, uning ignalari qo'lga kirib,
qonab ketibdi. Paytdan foydalangan tipratikan ovchining
qo'lidan qutulib, bir g'orga yashiribdi.

Qissadan hissa shuki, hech qachon «Men zo'rman»,
deb maqtanmaslik kerak.

Sevarbek ELBOYEV,
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi
118-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

Namanganda 1998–1999-yillarda tugʻilgan qizlar oʻrtasida basketbol boʻyicha Oʻzbekiston chempionati boʻlib oʻtdi.

QORAQALPOGʻISTON JAMOASI OLDINDA

Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etilgan musobaqada Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Namangan, Fargʻona, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahridan beshta jamoa oʻzaro bahslashdi.



Daʼstlabki uchrashuvda namanganlik basketbolchi qizlar Navoiy viloyati terma jamoasini 46:26 hisobida yenggan boʻlsa, Qoraqalpogʻiston Respublikasi vakillari fargʻonalik tengdoshlaridan 49:23 hisobida ustun keldi.

Keyingi bellashuvlarda Toshkent shahri jamoasi navoiyliklarni 62:19, Namangan terma jamoasi fargʻonalik tengdoshlarini 34:20 hisobida magʻlub etdi.

Qoraqalpogʻiston terma jamoasi chempionlikka asosiy daʼvogar boʻlgan toshkentlik tengdoshlarini 65:62, navoiylik raqiblarini 53:29 va nihoyat mezbonlarni 57:44 hisobida magʻlubiyatga uchratib, shohsupaning yuqori pogʻonasini egalladi. 2- va 3-oʻrinlar Toshkent shahri hamda Namangan viloyati basketbolchi qizlariga nasib etdi.

«UMID NIHOLLARI»NING TUMAN BOSQICHI

Joriy yilning 4–9-noyabr kunlari Oʻzbekistonning barcha hududlarida umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilari oʻrtasida «Umid nihollari» sport musobaqalarining maktab va tuman (shahar) bosqichlari boʻlib oʻtdi. Unda 1–4-sinf oʻquvchilari sportning 5 ta turi boʻyicha, 5–9-sinf oʻquvchilari esa 6 ta tur boʻyicha oʻzaro bellashdilar.

Sport musobaqalarining oʻquvchilarning kuzgi taʼtil kunlarida oʻtkazilishi ularning boʻsh vaqtlarini mazmunli va foydali tashkil etish imkonini berdi.


Shuningdek, kuzgi taʼtil kunlarida oʻquvchilarning sport bilan shugʻullanishlari uchun umumiy oʻrta taʼlim maktablari, bolalar va oʻsmirlar sport maktablari, sport majmualaridagi toʻgaraklar va seksiyalar, suzish havzalari toʻlaonli faoliyat koʻrsatdi. Bugungi kunda respublikada ularning soni 65 423 tani tashkil qilib, sport toʻgaraklarida 1 million 637 943 nafar oʻquvchilar sport bilan muntazam shugʻullanib kelmoqda. Eng quvonarlisi, sport toʻgaraklarida qatnashish 16 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun bepuldur.



Jamshid KAMOL

«NASAF»DAGI BUNYODKORLIK

Qashqadaryo qadimdan oʻzining allomalari, polvonlari, chavandozlari bilan mashhur boʻlib kelgan yurt.



Ikki hafta davomida maktab murabbiylariga oʻz dasturlarini namoyish etdi, bir soʻz bilan aytganda, tajriba almashildi. Qolaversa, u bilan kelajakda bolalarni yangicha ruhda tarbiyalash borasida dastur tuzildi. Endilikda futbolchilarning yashash va mashgʻulotlar oʻtkazish bazasi zamonaviylik darajasi boʻyicha nafaqat Osiyo, balki Yevropaning nomdor klublari bazasi bilan ham raqobatlasha oladi.

Yaqinda «Nasaf» klubi mehmonlarning katta tarkibini qabul qildi. Shaharning markaziy «Nasaf» stadionida barpo etilgan yangi sport inshooti – oʻrinbosarlar bazasi taqdimotiga bagʻishlab seminar tashkil etildi.

Oʻzbek futbolining rivojida Qashqadaryo futbolining ham oʻziga xos hissasi bor. Viloyatdagi futbol jonkuyarlaridan biri Shamil Yarulin futbol hayotida yashay boshlaganiga endigina besh-olti yil boʻldi. Ammo mana shu qisqa vaqt ichida u oʻzining izlanuvchanligi, tashkilotchi va tashabbuskorligi, eng muhimi, oʻziga ham, boshqalarga ham talabchanligi bilan tanila boshladi. Avvaliga «Sevinch»da huquqshunos, menejer sifatida klubning ijtimoiy va iqtisodiy strukturasi rivojlantirishda, klubning xalqaro maydonlardagi ishtirokini taʼminlashda, yangi-yangi gʻoyalarni oʻylab topishda faollik koʻrsatdi. Uning mehnati va ishga boʻlgan qobiliyatini toʻgʻri anglagan «Nasaf» klubi rahbariyati uni viloyat bosh jamoasiga, masʼuliyatli vazifaga taklif etdi.

Mutaxassis darhol amaliy ishga kirishdi. Futbol maktabi tarbiyalanuvchilarining birinchi marta xorijda – Ukrainada oʻtgan xalqaro turnirdagi ishtiroki taʼminlandi, natijada yosh futbolchilar bosh sovrin bilan qaytishdi. Germaniyalik mutaxassis Andrey Vayberg Qarshiga taklif etildi. U yosh futbolchilarga master-klass oʻtkazish bilan birga bazasi taqdimotiga bagʻishlab seminar tashkil etildi.

Yangi inshoot Qarshi shahrining gʻarbiy qismidagi Qarshi-Beshkent yoʻli boʻyidagi «Yoʻldosh» qoʻrgʻonchasida joylashgan. Bir paytlar «Qarshi-qurilish» tashkilotiga tegishli boʻlgan mazkur hudud ancha yillar davomida beeʼtibor qolgandi. Klub bu yerni oʻz ixtiyoriga olgach, taʼmir ishlarini boshlab yubordi. Oʻrinbosarlar ixtiyorida endi alohida, hamma talablarga javob beradigan futbol maydoni – stadion ham bor. Bundan buyon yoshlar jamoasi uydagi uchrashuvlarini ana shu stadionda



Bolalar sportiga boʻlgan eʼtiborning yuksak namunasi ibratli namuna sifatida koʻpchilikda katta qiziqish uygʻotdi.

Shoh MUHAMMAD




YAXSHI KITOBLAR BOR

«Adabiy ijod hamisha Soʻz olamiga sayohatdir. Ijodkor Soʻzni tirik jon deb biladi va Soʻz bilan soʻzlashadi. Mening bu yozganlarim ana shunday jonli til bilan jonli suhbat boʻlishini istayman. Umrini yashab boʻlgan va barhayot, men anglagan va anglab yetmagan sohir xilqat bilan koʻngil bogʻlarida kezib, xayolan Soʻz bilan soʻzlashsam, Til bilan tillashsam, deymen. Siz azizlarimni ham bu sayrda hamroh boʻlishga taklif etmoqchiman. Soʻz moʻjizasi qoshidagi hayratlarimga oshno qilmoqchiman».

Ona tili millatning naqadar boyligi, koʻp maʼnoli soʻzlar, soʻz birikmalari, ularning kelib chiqish tarixi, soʻz yasalishi kabi masalalar haqida maroq bilan hikoya qiluvchi «Soʻz latofati»da ijodkorning ona tili haqida cheksiz mehr-muhabbati oʻz aksini topgan.

«Ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi masʼuliyat ham umummilliy. Men oʻzbekman, degan har bir inson oʻzbek tili uchun qaygʻurmogʻi kerak», deydi ijodkor oʻz maqolasida. Haqiqatan ham biz unutilgan soʻzlarni tiklamogʻimiz, borini esa boyitib borishimiz lozim. Zero, bu ijodkor aytganidek, tilshunoslarning emas, millatning ishidir. Bu masalaga oʻquvchi-yoshlarimiz ham aslo befarq boʻlmasliklari kerak.

Aziz kitobxon oʻquvchilar! Siz Erkin Vohidovning «Soʻz latofati» kitobini oʻqing va oʻzingiz xulosa chiqaring.



«Oʻzbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
tomonidan
Oʻzbekiston
Qahramoni,
Oʻzbekiston xalq
shoiri Erkin
Vohidovning «Soʻz
latofati» deb
nomlangan kitobi
bosmadan chiqdi.

MAQOL HAQIDA MAQOLA

Eng ulugʻ donolik bu soʻzning soddaligidir. Maqollar esa doimo sodda koʻrinishda boʻladi. Shuning uchun ham ularda kitoblar mazmuniga teng keladigan fikrlar mavjuddir.

Agar siz tinglovchiga fikringizni maqollar yordamida bildirsangiz, bu bilimdonligingizdan darak beradi. Maqollar xatolarning oldini olish, toʻgʻri fikr va mulohaza yuritishga undaydi. Asrlar davomida ogʻizdan ogʻizga oʻtib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashini, tarixini ifodalaydi. Oʻzbek xalq maqollari ham eng qadimgi zamonlardan beri odamlar orasida aytilib, mukammallashib, avloddan avlodga oʻtib kelayotgan maʼnaviy meroslardan biridir.

Aziz bolajonlar, ulugʻ Alisher Navoiy oʻzining «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Xazoin ul-maoniy», «Nazmul javohir», «Lison ut-tayr» singari asarlarida ham juda koʻp maqollar va hikmatli soʻzlardan foydalangan. Oʻzbek xalq maqollarida ona Vatanni sevish, uni har qanday ichki va tashqi dushmanlardan qoʻriqlash asosiy oʻrinni egallaydi. Shunday ekan, maqollar yod oling, zero ularning oʻzi sizga toʻgʻri yoʻl koʻrsatadi.



Ilm baxt keltirar,
Bilim taxt keltirar.

Til bilgan yoʻlda qolmas.

Yaxshi bilan doʻst boʻlsang yetarsan murodga,
Yomon bilan doʻst boʻlsang, qolarsan uyatga.

Shahnoza MUHAMMEDOVA



Onasi oʻgʻliga dedi:
– Oʻgʻlim, oʻqishlaring
qalay?

– Yaxshi.
– Baholaring-chi?
– Besh, oyijon, besh.
– Qani, kundaligingni
ber-chi.

– Mana, oyi...
– Voy, bu nima?
– Uch.
– Bunisi-chi?
– Ikki.
– Hamma baholarim
besh deganding-ku...
– Voy, oyi, shuni ham
bilmaysizmi? Ikkiga uchni
qoʻshsa besh-ku?!

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! ANTIQA BOSHQOTIRMA

1. Bahor taomi. 2. AQSHdagi shtat. 3. Suyuq ovqat. 4. Bulbul. 5. Nabi
(aktyor). 6. Choʻl burguti. 7. Oʻzbekistondagi viloyat. 8. Nok turi. 9. Hafta kuni.

1	S	2	A	3	M	4	A	5	R	6	Q	7	A	8	N	9	D

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

Gazetamizning 44-sonida berilgan «OBOD DIYOR» KROSSVORDining javoblari
Diagonallar boʻyicha oʻngga: 1. Abdullayev. 3. Choʻlpon. 22. Oqboʻra.
Diagonallar boʻyicha chapga: 1. «Andijanka».
Eniga: 2. Arpa.
Boʻyiga: 3. Chavandozlik. 4. Shahrixon. 5. Namangan. 11. Uzum. 12. Marhamat. 13. Teatr. 14.
«Lola». 15. Asaka. 16. Aravonsoy. 22. Olma. 23. Boʻz. 24. Zunnunova. 25. «Andijon».
Harflar boʻyicha «zanjir» holda: 6. Oraziy. 7. «Yambol». 8. «Lasetti». 9. Ipakchilik. 10. Kino.
17. Nosirova. 18. Atletika. 19. Anjir. 20. Rahmonova. 21. An.

Gazetamizning navbatdagi soni shu yilning 24-noyabrda chiqadi.

8

10-noyabr 2014



Muassislar:

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligi,
Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOGʻLOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli boʻlmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda roʻyxatdan oʻtgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdugʻani XOLBEKOV,
Bahodir GʻANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURGʻUNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Saʼdullo TURSINOV
(Bosh muharrir oʻrinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(masʼul kotib)

Navbatchi
muharrir
Yusuf
ABDULLAYEV
Rassom
Fèruzбек
KAMOL oʻgʻli

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy koʻchasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«Oʻzbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qoʻlyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30449
Buyurtma – S 1334



parazda qisqer!



Bolajonlar, bugun tavsiya qilayotgan
salatimiz salqin kunlarda sizga darmon
bagʻishlaydi. Uni tayyorlab koʻring,
ishonamizki, salatimiz sizlarga xush yoqadi.

DARMONDORI SALAT

Kerakli masalliqlar: Karamning
chorak boʻlagi, tovuq filesi, yarim
bogʻ shivit, tuz, qora murch.

Tayyorlanishi: Ishni tovuq
goʻshtini pishirishdan boshlaymiz.
Goʻsht pishgunga qadar karam,
shivitni mayda toʻgʻrab, tuz solib
aralastirib qoʻyamiz. Pishgan tovuq goʻshtini
sovitib, u ham boshqa mahsulotlar singari
mayda toʻgʻraladi va oʻsimlik yogʻi, murch
qoʻshib aralastiriladi. Darmondorilarga boy salatimiz tayyor!
Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi